

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**IBODULLAYEV ABRORJON AXRORJONOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI  
RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Ibodullayev Abrorjon Axrorjonovich**

О‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning strategik  
yo‘nalishlari..... 3

**Ибодуллаев Аброржон Ахроржонович**

Стратегические направления развития рынка ценных бумаг в  
Узбекистане..... 35

**Ibodullaev Abrorjon Axrorjonovich**

Strategic directions for the development of the securities market in  
Uzbekistan..... 67

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 72

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**IBODULLAYEV ABRORJON AXRORJONOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI**  
**RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt849 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Muxamedov Farxod Tursunbayevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «07» 11 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34. [kutubxona@tsue.uz](mailto:kutubxona@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» 10 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «24» 10 dagi 74 raqamli reestr bayonnomasi).



  
**T. Z. Teshabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

  
**J. X. Ataniyazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

  
**I. N. Qo'ziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlarida so‘nggi yillarda moliyaviy bozorlarning, xususan, qimmatli qog‘ozlar bozorining roli va ahamiyati izchil oshib bormoqda. Global moliya bozorlarining rivojlanishi natijasida kapital bozorlari iqtisodiy o‘shish jarayonlarining strategik drayveriga aylanmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozori orqali sarmoya resurslarining samarali taqsimlanishi, iqtisodiyotda mavjud bo‘sh moliyaviy zaxiralarni real sektorga yo‘naltirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, jahon kapital bozori orqali hosil bo‘ladigan likvid moliyaviy resurslar investitsiya faolligini rag‘batlantirib, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda kapital bozorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Masalan, AQSh iqtisodiyotida 2023-yil yakuniga kelib, fond bozorining umumiy kapitallashuv hajmi 40 trln. AQSh dollaridan oshib ketdi va bu ko‘rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 160 foiziga teng bo‘ldi. Bunday yuqori kapitallashuv darajasi AQSh kapital bozorining jahon moliya tizimidagi ustun mavqeini namoyon etmoqda. Bunda NASDAQ va NYSE kabi fond birjalari va birjadan tashqari bozorlar global likvidlik markazlari sifatida xizmat qilmoqda. Yaponiya kapital bozorida ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatilmoqda. 2023-yilda Tokio Stock Exchange (TSE) orqali shakllangan kapitallashuv hajmi 6,3 trln. AQSh dollarini tashkil etib, Yaponiya YAIMning 110 foiziga yetdi. Janubiy Koreya va Singapur kabi iqtisodiyoti yuqori texnologik tarmoqlarga tayanadigan mamlakatlarda ham kapital bozorining YAIMga nisbati mos ravishda 120–150 foiz atrofida shakllangan. Yevropa davlatlari ichida Germaniyada Frankfurt Stock Exchange (Xetra) orqali kapitallashuv hajmi 2,2 trln. dollarni tashkil qilib, YAIMning 90 foizidan ortig‘ini qamrab olgan. Buyuk Britaniyada London Stock Exchange kapitallashuvi 3,2 trln. AQSh dollariga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich YAIMning taxminan 125 foizini tashkil etgan<sup>1</sup>.

Jahon amaliyotida moliya bozorlari global raqobatining keskin kuchayib borishi sharoitida, qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda asosan iqtisodiyotning barqaror moliyalashtirilishini ta‘minlashda qimmatli qog‘ozlar bozorining strategik roli, uning salohiyatidan to‘liq foydalanish zaruriyati, shuningdek, fond bozorlarini xalqaro standartlar asosida integratsiya qilish masalalari tahlil etilmoqda. Xususan, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda fond bozorining iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashda asosiy moliyalashtirish mexanizmi sifatida rivojlantirilishi masalasi muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy moliyaviy tizimda bank kreditlari bilan bir qatorda kapital bozorlari orqali investitsiya resurslarini jalb etish, ularni samarali taqsimlash va ishlatish orqali iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini barqarorlashtirish

---

<sup>1</sup> <https://data360.worldbank.org/en/economies> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

imkoniyatlari kengaymoqda. Shu munosabat bilan, fond birjalari faoliyatining xalqaro moliyaviy infratuzilmalar, ya'ni global birja platformalari, xalqaro depozitariy tizimlari va kliring markazlari bilan muvofiqlashtirilishi va integratsiyalashuvi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Bundan tashqari, fond bozorlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy va makroiqtisodiy omillar sifatida mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, valyutaning barqarorligi, ichki va tashqi qarz yuki, investitsion muhit barqarorligi kabi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin. Shuningdek, institutsional omillar sifatida korporativ boshqaruv madaniyati, moliyaviy savodxonlik darajasi, investorlarni himoya qilish mexanizmlari, auditorlik tizimi va oshkoralik standartlari ham fond bozori barqaror rivojlanishining zaruriy shartlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarish faoliyatida raqobatbardoshlikni kengaytirish, mahalliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonlarini dunyo standartlariga muvofiq olib borish, iqtisodiyotga investitsiyalarni, birinchi navbatda bazaviy va tarkibiy asoslarni tashkil etuvchi muhim sohalarga jalb etishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "Bunda, iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish, fond bozorini rivojlantirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish faol investitsiya siyosatini olib borish, jamiyat va davlat faoliyatining barcha sohalarini jadal va barqaror rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi". Iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi hamda investitsiya va jamg'arma tizimining takomillashuvi natijasida uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonda fond birjalariga bo'lgan ehtiyoj ortib, yirik sarmoyadorlar moliyaviy resurslarini samarali yo'naltira boshlagani sababli fond birjalarning ahamiyati yanada oshdi. Bu holat, ayniqsa, moliya bozorlarining barqarorligi va investitsion faollikni oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlashda qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish zarurati tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son, 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5073-sonli Qarorlari, 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining davlat g'aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-dekabrda 1016-son Qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 82-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-maydagi "Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi 268-sonli hamda 2019-yil 26-apreldagi "Fond birjasida aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi

358-son Qarorlarida belgilangan vazifalar kapital bozorini tubdan isloh qilish va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, uni barqarorlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish borasida bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tashkilotlar qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional asoslarini mustahkamlash, tartibga solish tizimini takomillashtirish hamda investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha strategik yo'nalishlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, Xalqaro qimmatli qog'ozlar komissiyalari tashkiloti (IOSCO- Qimmatli qog'ozlar bo'yicha xalqaro komissiyalar), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), Jahon Banki (World Bank Group), Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS), Yevropa qimmatli qog'ozlar va bozorlar tashkiloti (ESMA – Yevropa qimmatli qog'ozlar va bozorlar idorasi) kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi mazkur dissertatsiya ishining dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

**IOSCO Xalqaro qimmatli qog'ozlar komissiyalari tashkiloti qimmatli qog'ozlar bozorini dunyo bo'ylab tartibga soluvchi asosiy xalqaro tashkilot bo'lib,**

---

<sup>2</sup> (IOSCO — International Organization of Securities Commissions) <https://www.iosco.org>; Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD — Organisation for Economic Co-operation and Development) <https://www.oecd.org>; Jahon Banki (World Bank Group) <https://www.worldbank.org>; Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF — International Monetary Fund) <https://www.imf.org>; Bank for International Settlements (BIS) <https://www.bis.org>; Yevropa Qimmatli Qog'ozlar va Bozorlar Tashkiloti (ESMA — European Securities and Markets Authority) <https://www.esma.europa.eu>; Harvard Business School Working Papers, Journal of Financial Economics <https://www.hbs.edu>; Yamori Nobuyoshi. Commodity Etf's in The Japanese Stock Exchanges. Journal of Advanced Studies in Finance, ISSN 2068-8393 <https://journals.aserspublishing.eu/jasf/article/view/45>. Issue Vol 2 No 1 (2011): JASF Volume II Issue 1(3) Summer; Yu Hsing. Impacts of Financial Stock Prices and Exchange Rates on the Demand for Money in Poland. South East European Journal of Economics and Business. Volume 2 issue 1 04 Mar 2008. University Hammond, USA.; C.Keller, M.Siegrist. Investing in Stocks: The influence of financial risk attitude and values-related money and stock market attitude. Journal of Economic Psychology, Volume 27, Issue2, April 2006, Pages 285-303.; B.Nejla. Book-to-market equity and size as determinants of returns: evidence from the tunisian stock exchange. Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы, № 8, 2013. University of Manouba, ESC (High School of Business), (Tunisia); Chan L.K.C, Y.Hamao, J.Lakonishok Fundamentals and Stock Returns in Japan' The Journal of Finance, vol. 46, No. 5, December 2010, pp. 1739- 1764, DOI 10.1111/j.1540-6261.1991.tb04642.x.; F.Sekmen. Exchange rate volatility and stock returns for the U.S. African Journal of Business Management Vol. 5(22), pp. 9659-9664, 30 September, 2011 <http://www.academicjournals.org/AJBM> DOI: 11.5897/AJBM11.649. Academic Journals Faculty of Economics and Administrative Science, Sakarya University, 54187-Sakarya, Turkey.; M.Ezazi, S.Ketabi, S.Hosseini. Ranking Stock Exchange Companies With a Combined Approach Based on FAHP-FTOPSIS Financial Ratios and Comparing Them With Tehran Stock Exchange Rankings. International Journal of Business and Development Studies Vol. 7, No. 1, (2015) pp 63-75. University of Sistan and Baluchestan, Iran.; S. Jabbarzadeh, B. Kavasi, M. Motavassel. The effects of outside board on firm value in Tehran Stock Exchange from the perspective of information transaction costs. Int. J. Industrial Mathematics (ISSN 2008-5621) Vol. 5, No. 4, 2013 Article ID IJIM-00361, 11 pages. <http://ijim.srbiau.ac.ir/>; A. Ellul, H. Shin, I. Tonks. Opening and closing the market: evidence from the london stock exchange. Journal of Financial and Quantitative Analysis. Volume 40, Issue 4 December , pp. 779-801. School of Business Administration, University of Washington.; Y. Nishimura, Harvard Business School Working Papers, Journal of Financial Economics <https://www.hbs.edu>

qimmatli qog'ozlar bozorining shaffofligi, samaradorligi va investorlarga nisbatan adolatli munosabatni ta'minlashni maqsadida faoliyat yuritadi. Mazkur tashkilot qimmatli qog'ozlar bozorida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar, moliyaviy innovatsiyalar, risklar va tartibga solish siyosatlari yuzasidan muntazam ravishda tadqiqot va tahliliy hisobotlar tayyorlagan; OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) korporativ boshqaruv, investorlarni himoya qilish, kapital bozorlari samaradorligini oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan faoliyat yuritadi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan "OECD korporativ boshqaruv tamoyillari" xalqaro miqyosda eng muhim normativ hujjatlardan biri hisoblanadi va ko'plab davlatlar tomonidan milliy qonunchilikka integratsiya qilingan; Jahon Banki qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va moliyaviy tizimlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy va ilmiy loyihalarni amalga oshiradi. U ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha tashxis (diagnostic studies), texnik yordam va strategik tavsiyalar ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha dunyoning nufuzli ta'lim muassasa va tashkilotlarida yetuk iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar bozor mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, korporativ boshqaruvni rivojlantirish hamda tartibga solish siyosatini optimallashtirishga qaratilgan. AQShning Harvard universitetida Luigi Zingales, Malcolm Baker va boshqa turli rivojlangan mamlakatlari iqtisodchi olimlari Y. Nobuyoshi, Yu. Hsing, C. Keller, M. Siegrist, B. Nejla, L.K.C. Chan, Y. Hamao, J. Lakonishok, F. Sekmen, M. Ezazi, S. Ketabi, S. Hosseini, S. Jabbarzadeh, B. Kavasi, M. Motovassel, A. Ellul, H. Shin, I. Tonks, Y. Nishimura, Y. Tsutsui, D. Grigoreva, M. Morozova, U. Sharp, G. Aleksandr, J.R. Xiks, Y. Mirkin, D. Stauffer, D. Sornetti, M. Bartolozzi, B. B. Leinveber, A.V. Tomas va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan va tadqiqot olib borilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiy tizimda muhim o'rin egallashi, uning mazmuni va rivojlanish istiqbollari yuzasidan yaponiyalik olim Y. Nobuyoshi o'z ilmiy izlanishlarida alohida to'xtaladi. U o'z tadqiqotlarida qimmatli qog'ozlar bozorining taraqqiyotida fond birjalarining tutgan o'rnini chuqur tahlil qilgan holda, ayniqsa Tokio fond birjasining hozirgi bosqichdagi rivojlanish tendensiyalariga e'tibor qaratadi. Olim, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Yana bir guruh yaponiyalik tadqiqotchilar Y. Nishimura va Y. Tsutsui o'z ilmiy ishlari orqali xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va taraqqiyot jarayonlarini tahlil qilgan. Ular, xususan, xalqaro fond birjalari faoliyatining rivojlanishida uchrayotgan asosiy muammolarni atroflicha ko'rib chiqib, bu boradagi to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llariga e'tibor qaratadilar.

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan biri bo'lgan B. Nejla o'z ilmiy izlanishlarida Tunis fond birjasining tashkil topishi va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini tahlil qiladi. U fond birjalari orqali uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish,

moliyaviy resurslarni safarbar qilishdagi samaradorlikni chuqur yoritgan. Tadqiqotchilar fikrlariga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozori - bu ishonchga asoslangan hamda tizimli shakllangan, barqaror moliyaviy resurslarni jalb etishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi<sup>3</sup>.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, undagi mavjud muammolari samarali usullar bilan bartaraf etish masalalari respublikamizning yetuk iqtisodchi olimlaridan bo'lgan Sh. Shoxa'zamiy, I. Butikov, A. Vaxabov, N. Jumayev, M. Xamidulin, U. Aliyev, X. Akromov, V. Kotov, F. Mirzayev, F. Muxamedov, T. Yadgarov, J. Karimqulov, S. Elmirzayev, A. Shomirov, Q. Chinqulov, U. Xalikov, X. Xudoyqulov, Sh. Sultonov, A. Xo'jamurodov<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rin olgan. Mazkur iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanish bosqichlari, uning iqtisodiy mohiyati, tasnifi va funksional xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlari qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, global kapital bozorlaridagi zamonaviy yo'nalishlar

<sup>3</sup> Д. Григорева. Влияние инфляции и курса валют на фондовый рынок. Journal Modern problems of science and education. – 2014. № 2. Peoples Friendship University of Russia; M. Morozova. Формирование региональных оптово-распределительных центров с использованием современных биржевых инструментов в Оренбургской области. Региональная экономика: теория и практика. 5 (2016). – S. 73-85. Оренбургский государственный аграрный университет; Alpina Publisher, 2002. – 583 s.; D. Stauffer, D. Sornette. Self-organized percolation model for stock market fluctuations. Physica A: Statistical Mechanics and its Applications. Volume 271, Issues 3-4, 15 September. – P. 496-506. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378437199002903>; M. Bartolozzi, D. B. Leinweber, A. W. Thomas. Self-organized criticality and stock market dynamics: an empirical study. Physica A: Statistical Mechanics and its Applications. Volume 271, Issues 3-4, 15 September 1999. – P. 496-506. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378437199002903>; via%3Dihub. Nobuyoshi Y. Commodity Efts in The Japanese Stock Exchanges. Journal of Advanced Studies in Finance, ISSN 2068-8393 <https://journals.aserspublishing.eu/jasf/article/view/45>. Issue Vol 2 No 1 (2019): JASF Volume II Issue 1(3) Summer 2019. Y. Nishimura, Y. Tsutsui. Do international investors cause stock market spillovers? Comparing responses of cross-listed stocks between accessible and inaccessible market. Economic Modelling, Volume 69, January 2018. – P. 237-248. B. Nejla. Book-to-market equity and size as determinants of returns: evidence from the tunisian stock exchange. Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы, № 8, 2013. p 45. University of Manouba, ESC (High School of Business), (Tunisia).

<sup>4</sup> Shoxa'zamiy Sh. Sh. Биржевая деятельность. Учебник. – Т.: Ilm Ziyoy, 2006. – 288 s.; Butikov I. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. – Т.: Konsauditinform, 2001. – 496 b.; Vaxabov A.V., Jumayev N.X., Hoshimov E.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. – Т.: Akademnashr, 2009. – 141 b.; Xamidulin M.B. Развитие финансового механизма корпоративного управления. – Т.: Moliya, 2008. – 204 s.; Aliyev U.M. Пути совершенствования функционирования инфраструктуры рынка ценных бумаг: автореферат дисс... к.е.н. – Т., 2008. – 19 s.; Akromov X.M. O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta'siri: i.f.n.diss. avtoreferati. – Т., 2010. – 22 b.; Kotov B.A. Organizatsiya rynka tsennykh bumag. – Т.: Moliya, 2007. – 23 s.; Mirzaev F.I. Moliya bozori operatsiyalari risklarini baholash usullari (qimmatli qog'ozlar misolida): i.f.n. ...diss. avtoreferati. – Т., 2002. – 20 b.; Muxamedov F.T. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Т., 2019. – 60 b.; Yadgarov T.D. Депозитарная система рынка корпоративных ценных бумаг и ее интеграция в международный рынок капитала: автореферат дисс... к.е.н. – Т., – 20 с.; Karimqulov J.I. O'zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yo'llari: i.f.n. ...diss. avtoref. – Т., 2012. – 22 b.; Элмирзаев С.Е. и др. Финансовый рынок. Учебник. – Т.: "Иқтисод-молия", 2019. – 400 с.; Shomirov A.A. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari: iqt. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Т., 2019. – 28 b.; Chinqulov Q.R. Aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishni takomillashtirish: iqt. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 30 b.; Xalikov U.R. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: iqt. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Т., 2017. – 24 b.; Xudoyqulov X.X. Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish: iqt. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Т., 2018. – 24 b.; Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari: iqt. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Т., 2020. – 24 b.; Xo'jamurodov A.J. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish: iqt. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Т., 2019. – 26 b.

hamda bozor infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha strategik yondashuvlarni qamrab oladi. Xususan, qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional tuzilmasi sifatida fond birjalari, kliring va hisob-kitob tizimlari, depozitariy faoliyatini jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirish zarurati alohida o'rganilgan. Ayni paytda, raqamli texnologiyalar va moliyaviy innovatsiyalarning bozor ishtirokchilari faoliyatiga ta'siri ham muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bundan tashqari, mazkur tadqiqotlarda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi, birja faoliyatining hozirgi holati, institutsional islohotlar va rivojlanish dinamikasi chuqur tahlil qilingan hamda milliy kapital bozorini yanada samarali rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'z navbatida, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish masalalarining dolzarbligi, ilmiy va amaliy taklif tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi mazkur ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

qimmatli qog'ozlar bozorining paydo bo'lishi va shakllanish jarayonini o'rganish;  
qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy tuzilmasini hamda uning asosiy vazifalarini tasniflash va tavsiflab berish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishga oid huquqiy asoslarni yoritib berish;  
mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish;

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimli ravishda guruhlash va ularning ta'sir darajasini baholash;

xorijiy mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori ko'rsatkichlari hamda ularning rivojlanish holatini tahlil qilish;

mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda mavjud muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini asoslab berish;

qimmatli qog'ozlar bozorining makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion faollikka ta'sirini baholash;

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash, ular asosida ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, kuzatuv, nazariy va amaliy tahlil, sintez, shuningdek, koeffitsiyent va ekonometrik modellashtirish metodlari qo'llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag'larining bir qismini yoki kreditning kamida 5 foizini mahalliy kapital bozorida korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish taklif etilgan;

davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarning aksiyalarini fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng kamida 7 yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizini dividend to'lashga yo'naltirish taklif etilgan;

uyushgan savdolarida qimmatli qog'ozlarni sotuvchi (sotib oluvchi) norezident yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraqlar ochishga ruxsat berish taklif etilgan;

xorijiy investorlarga (tan olingan chet el banklari, shu jumladan kastodian banklarga) davlat qimmatli qog'ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borish imkoniyatini yaratish taklif etilgan;

qimmatli qog'ozlar egalariga qimmatli qog'ozlar daromadlari emitent bilan markaziy depozitariy o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida markaziy depozitariy tomonidan to'lanishi taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

korporativ obligatsiyalarning chiqarilishi va muomalasi hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda obligatsiyalarning qiymatini chet el valyutasida belgilash va mazkur valyutada to'lashga ruxsat berilishi natijasida xorijiy investorlar uchun chet el valyutasida to'lovlarni amalga oshirish imkoni yaratildi, o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish takomillashtirildi;

uyushgan savdolarida qimmatli qog'ozlarni sotuvchi (sotib oluvchi) norezident yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraqlar ochishga ruxsat berilishi natijasida norezident investorlar uchun milliy valyutada hisobvaraqlar ochish imkoniyati yaratildi, ularning O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoriga kirish jarayoni soddalashtirildi;

Markaziy depozitariyning mobil ilovasi orqali aksiyadorlik jamiyati bilan aksiyadorlarga dividendlar to'lovini amalga oshirish bo'yicha shartnomalar tuzishni joriy etilishi natijasida mazkur mobil ilova orqali aksiyadorlarga dividendlar to'lovi amalga oshirilishiga erishildi.

davlat ishtirokidagi korxonalarga mablag'larining bir qismini korporativ obligatsiyalarni sotish orqali jalb qilishni yo'lga qo'yilishi orqali uyushgan bozorda korporativ obligatsiyalar savdosi hajmining o'sishiga erishildi;

davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarning sof foydasining aniq bir qismini dividendga yo'naltirish orqali aksiyalariga to'lanadigan dividendlarning hajmini oshishiga erishildi;

norezident yuridik shaxslar uchun milliy valyutada hisobvaraqlar ochishni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatda investitsion salohiyatni yanada rivojlantirishga, sarmoyalar oqimini ko'paytirishga va mamlakatning qimmatli qog'ozlar bozori raqobatbardoshligini oshirishga erishilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ular doirasida foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, aniq me'yoriy hujjatlar va iqtisodiy normativlar hamda qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi hisobotlari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, "Toshkent" Respublika fond birjasi va Milliy statistika qo'mitasining amaliy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, ekonometrik tahlilga asoslanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining barqarorligini aniqlash hamda uni rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar va uning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirishga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu natijalar istiqbolda amalga oshiriladigan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llanilishi mumkin. Bu esa qimmatli qog'ozlar bozorini chuqur isloh qilish jarayoniga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish hamda dissertatsiya ishi materiallaridan oliy ta'lim muassasalarida «Korporativ moliya», «Qimmatli qog'ozlar bozori» va «Birja ishi» fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqiladigan chora-tadbirlarda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag'larining bir qismini yoki kreditning kamida 5 foizini mahalliy kapital bozorida korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son Qarori bilan tasdiqlangan "2023 – 2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 1-maydagi 03/09-1-17/1787-son ma'lumotnomasi). Natijada 2024-yil yakunlariga ko'ra fond bozorining uyushgan savdo tizimi hisoblangan – "Toshkent" RFB korporativ obligatsiyalar bozori segmentida savdo hajmining o'sishiga erishilgan;

davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarning aksiyalarini fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng kamida 7 yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizini dividend to'lashga yo'naltirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son Qarorining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 1-maydagi 03/09-1-17/1787-son ma'lumotnomasi). Natijada 2023-yilda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan

to'langan dividendlar 26 017 mlrd. so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 16,9 foizga oshishiga erishilgan;

uyushgan savdolarida qimmatli qog'ozlarni sotuvchi (sotib oluvchi) norezident yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraqlar ochishga ruxsat berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son Qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida kapital bozorida chet ellik ishtirokchilarning faoliyati va operatsiyalariga doir alohida qoidalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 1-maydagi 03/09-1-17/1787-son ma'lumotnomasi). Natijada norezident yuridik shaxslar uchun milliy valyutada hisobvaraqlar ochishni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatda investitsion salohiyatni yanada rivojlantirishga, sarmoyalar oqimini ko'paytirishga va qimmatli qog'ozlar bozori raqobatbardoshligini oshirishga erishilgan;

xorijiy investorlarga (tan olingan chet el banklari, shu jumladan kastodian banklarga) davlat qimmatli qog'ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borish imkoniyatini yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son Qarori bilan tasdiqlangan "2023 — 2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 1-maydagi 03/09-1-17/1787-son ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy investorlarga davlat qimmatli qog'ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borish imkoniyatini yaratishga, mahalliy bozorni rivojlantirishga hamda xorijiy investorlar bilan aloqalarni mustahkamlashga erishilgan;

qimmatli qog'ozlar egalariga qimmatli qog'ozlar daromadlari emitent bilan markaziy depozitariy o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida markaziy depozitariy tomonidan to'lanishi taklifi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024-yil 28-iyunda 3523-son bilan ro'yxatga olingan "Qimmatli qog'ozlar daromadlari (dividendlar, foizlar) to'lovlarini "Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi" AJ va (yoki) investitsiya vositachilari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysining 2025-yil 3-apreldagi 1-son ma'lumotnomasi). Natijada investorlarga daromad o'z vaqtida va to'liq to'lanishi hamda investorlar huquqlari yanada yaxshiroq himoya qilinishi ta'minlanishiga erishilib, 2023-yil yakunida Markaziy depozitariy tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar miqdori 1,1 trln. so'mga yetgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 12 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob,

xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 225 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati barqarorligi va fond birjasida savdo hajmini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi, qimmatli qog'ozlar bozori barqarorligining metodologik asoslari tadqiq etilgan. Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati barqarorligi va uni ta'minlashning metodologik asoslari ilmiy jihatdan tadqiq qilingan va asosli ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, "1531-yilda Antverpenda, 1566-yilda Londonda, 1608-yilda esa Amsterdamda dastlabki tovar birjalari tashkil etilgan. Tovar birjalari o'z faoliyatini kengaytirgani sayin, ulardan ayrim yo'nalishlar ajralib chiqib, faqat ma'lum turdagi maxsus tovar – qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilinadigan alohida bozor segmentlari shakllana boshladi. Avvaliga bu segmentlar tovar birjalarining tarkibiy bo'limlari sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan valyuta operatsiyalari hajmining oshishi, tijorat veksellarining keng muomalaga kirib kelishi bilan alohida moliyaviy institutlar – fond birjalari tashkil topdi. Aynan ushbu fond birjalari qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiqni markazlashgan va tizimli shaklda amalga oshirish imkonini berdi"<sup>5</sup>.

Katta hajmdagi moliyaviy resurslarga ega bo'lgan yirik investorlar o'z mablag'larini samarali joylashtirish imkoniyatlarini izlar ekan, fond birjalari ularning e'tibor markaziga aylandi. Natijada, fond birjalari iqtisodiy muhitda o'z mavqeini yanada mustahkamlab bordi. Shuningdek, yirik ishlab chiqaruvchi subyektlarning o'z ehtiyojlarini moliyalashtirish maqsadida qimmatli qog'ozlar chiqarishi, ularning bozorda faol sotilishi va savdo hajmining ortib borishi fond birjalari faoliyatiga ijobiy hissa qo'shdi. Bu holat qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi. Qimmatli qog'ozlar bozori va uning tashkiliy shakli bo'lgan birja savdolarining shakllanishi hamda rivojlanishi yuzasidan xorijiy olimlarning ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlari turlicha yondashuvlarni aks ettiradi (1-jadval).

Bu borada AQSh, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va shu kabi rivojlangan davlatlarning iqtisodchi olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar muhim ilmiy asoslardan hisoblanadi.

---

<sup>5</sup>Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. – T.: Konsauditform, 2001. – 289 b.

**Qimmatli qog‘ozlar bozorining ilmiy-amaliy asoslari yuzasidan xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari<sup>6</sup>**

| <b>Xorijlik iqtisodchilar</b>                                                            | <b>Qimmatli qog‘ozlar bozori (birja) ga oid nazariy qarashlar, ilmiy tadqiqot ishlari mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Y. Nobuyoshi</b><br>Nagoya universiteti<br>(Yaponiya)                                 | Qimmatli qog‘ozlar bozorida fond birjalari asosiy institutsional tuzilma sifatida faoliyat yuritadi. Ular katta hajmdagi investitsiya resurslarini muvofiqlashtirish va ularni real iqtisodiyotga yo‘naltirish imkonini beruvchi moliyaviy transformatsiya mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>D. Stauffer</b> Kologne universiteti<br>(Germaniya)                                   | Qimmatli qog‘ozlar bozorining tashkiliy jihatdan mukammallashuvi, shuningdek, statistik axborotning ochiqligi va ishonchliligini ta‘minlash orqali ushbu bozorni xalqaro moliyaviy tizimlarga integratsiyalashuv darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ayniqsa, bu yo‘nalishda “Cont–Bouchaud” modeli asosida bozor statistikasi va o‘zgaruvchanligini tahlil qilish, istiqbolli dinamik tendensiyalarni aniqlash, shuningdek, klasterlash usullari orqali prognozlar ishlab chiqish qimmatli qog‘ozlar bozorini strategik rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.                                                                                                  |
| <b>D. Sornette</b><br>Nays-Sofiya Antipolis universiteti, (Fransiya)                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <b>Fuat Sekmen</b><br>Sakarya universiteti,<br>(Turkiya)                                 | Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishlarida AQSh qimmatli qog‘ozlar bozorining 1980–2008 yillar oralig‘idagi 28 yillik faoliyatini chuqur tahlil qilgan. Tahlil jarayonida autoregressiv harakatlanuvchi kvadratik modellar (ARMA) asosida bozor dinamikasi o‘rganilgan hamda valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning fond birjalari faoliyatiga ko‘rsatgan ta’siri baholangan.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <b>Andrew Ellul</b><br>Indiana universiteti<br>(AQSh)                                    | Qimmatli qog‘ozlar bozorida amalga oshiriladigan savdo operatsiyalari, odatda, birja asosida tashkillashtirilgan va yuqori darajada uyushgan shaklda olib boriladi. Bunday uyushgan moliyaviy bozorlarda resurslarning likvidligi yuqori, savdo jarayonlari esa yuqori darajadagi ishonchlilik bilan ajralib turadi. Bu jarayonda fond birjalari markaziy o‘rin egallab, qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi — ya’ni asosiy mexanizmi va boshqaruv richagi sifatida e’tirof etiladi. <i>(Mazkur iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida London fond birjasining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi roli va uning takomillashib borish tendensiyalari tahlil qilingan).</i> |
| <b>Hyun Song Shin</b><br>Xalqaro Hisob-kitoblar banki – (BIS) (Shveysariya)              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <b>Ian Tonks</b><br>Bristol universiteti<br>(Buyuk Britaniya)                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <b>D. Grigoreva</b><br>Rossiya Xalqlar do‘stligi universiteti<br>(Rossiya Federatsiyasi) | Qimmatli qog‘ozlar bozori (xususan, fond birjalari) moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va ularning iqtisodiyotda erkin harakatini ta‘minlovchi muhim moliyaviy institut sifatida e’tirof etiladi. Biroq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ushbu bozorning rivojlanishi xalqaro tajriba bilan solishtirganda qator to‘siqlar va cheklovchi omillar bilan yuzlashmoqda. Bu holat, asosan, moliyaviy resurslarni jalb etish va investitsiya muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.                                                                                                                                                                                  |

Iqtisodiyoti rivojlangan xorij mamlakatlarining iqtisodchi olimlari ilmiy izlanishlarida qimmatli qog‘ozlar bozori sohasining dolzarbligini va shakllanishini

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

keng yoritish bilan bir qatorda, ushbu bozorning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini ham chuqur o'rganib, tahlil qilganlar. Ular turli iqtisodiy modellashirish usullari orqali bu bozorning funksional ahamiyatini asoslab bergan hamda tegishli ilmiy xulosalarni ishlab chiqqanlar.

Jumladan, respublikamizning iqtisodchi olimlaridan I. Butikovning fikricha, "Qimmatli qog'ozlar bozori – bu jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi bilan bog'liq munosabatlari tizimidir. O'z navbatida, I. Butikov qimmatli qog'ozlar bozorini ikki yirik turga, ya'ni uyushgan va uyushmagan qimmatli qog'ozlar bozoriga ajratadi. O'z tadqiqotlarida olim, "qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori – bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lish sohasi bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini ushbu bitimlar ishtirokchilari uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solinganligini qayd etib o'tadi". Shuningdek, olimning ta'kidlashicha, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional tuzilmasi sifatida "klassik ko'rinishdagi fond birjasi bu – professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng yaxshi qimmatli qog'ozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori bo'lib, u savdo-sotiqning hamda qimmatli qog'ozlar va brokerlarga savdolarga ruxsat berishning alohida tartib-tamoyillariga ega hisoblanadi. Fond birjalari tarixan ma'lum ma'noda qimmatli qog'ozlar bozorining o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Ahamiyatlisi, olim mazkur fikrni davom ettirib, "Birja – uyushgan bozor, butun jahonda birjaga faqat barqaror moliyaviy ahvolga va rivojlanish istiqbollariga ega bo'lgan tuzilmalarning qimmatli qog'ozlariga erkin ruxsat etiladi", - deya qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy tuzilmasi sifatida birjalarga kengroq yondashgan. Bundan tashqari, yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda I. Butikov fond birjasi – "qimmatli qog'ozlarning alohida tarzda uyushgan bozor ekanligi, u uzoq rivojlanish tarixiga egaligi hamda to'rt yuz yildan ortiq vaqt mobaynida qimmatli qog'ozlar birja savdosini tashkil etish shakli ham, birjaning jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi roli ham o'zgarganligini alohida ta'kidlaydi"<sup>7</sup>.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqotlar olib borayotgan olimlardan biri professor Sh. Shoxa'zamiy uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etuvchi fond birjalarining faoliyat tamoyiliga asosiy e'tiborini qaratgan. Uning fikricha, "barcha ishtirokchilar (professional ishtirokchilar)ga teng sharoit yaratib beruvchi, aniq reglament va qat'iy belgilangan qoidalar asosida harakat qiluvchi, tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligini ta'minlovchi tamoyillarga ega yaxlit infratuzilmaviy savdo maydonini birjalar sifatida e'tirof etish mumkin"<sup>8</sup>.

Qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanish bosqichida faoliyat yuritgan dastlabki fond birjalari o'ziga xos tashkiliy va funksional xususiyatlari bilan ajralib turgan. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin.

---

<sup>7</sup> I. Butikov. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. – T.: Konsauditinform, 2001.

<sup>8</sup> Шоҳаъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга II, Т.: "Iqtisod-moliya", 2005. – 321 b.

- • Qimmatli qog'ozlar savdolarini o'zida markazlashtirib, tom ma'noda ularni "uyushtiradi".
- • Eng maqbul qimmatli qog'ozlar savdolarga qo'yiladi, ya'ni listing talablari o'rnatiladi.
- • Savdolarga birja muassasalari a'zolari bo'lgan maxsus ishtirokchilariga (professional ishtirokchilar) qatnashish huquqi beriladi.
- • Undagi savdolarida savdo qilishning muayyan qoidalari, tartibalari va andozalari o'rnatiladi va ushbu qoidalarga amal qilish majburiy hisoblanadi.
- • Birja faoliyatida o'z-o'zini boshqarish xususiyatining birja savdolari a'zolari tomonidan doimiy amalga oshirilishi samarali hisoblanadi.
- • Global miqyosda qimmatli qog'ozlarning savdolarini yo'lga qo'yish va moliyaviy resurslarni samarali jalb etish infratuzulmasi jamlanmasi hisoblanadi.

### 1-rasm. Fond birjalarining asosiy xususiyatlari<sup>9</sup>

Birjalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar bozor ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlab, savdo jarayonlarini markazlashtirilgan va tartibga solingan holda amalga oshirish imkonini yaratadi. Mazkur masala bo'yicha xorij hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy fikrlarini tahlil qilib, umumlashtirgan holda, "klassik birja shaklidagi va zamonaviy qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

qimmatli qog'ozlar bilan savdoni tashkillashtirishda belgilangan qonun qoida va tartiblar asosida faoliyat yuritish;

emitentlar va investorlar uchun shaffof, bir xil va adolatli sharoitlarni yaratish; talab va taklif asosida erkin narx shakllanishi uchun imkoniyat yaratish;

bitimlarni amalga oshirishda professional vositachilar - broker va dilerlar ishtirokini ta'minlash;

bozor mexanizmlari asosida likvidlikni kuchaytirish va aktivlar aylanuvchanligini oshirish;

axborotlarning oshkoraligi va barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar mavjudligini ta'minlash"<sup>10</sup>. Shu jihatdan, fond birjalarining rivojlanishi qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib, uning tashkil etilganligi investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishga ko'maklashuvchi institut sifatida alohida o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishi tahlili**» deb nomlangan bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlarining ochiq obuna orqali likvidligi yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlarini emissiyasi hajmini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining yirik ikki segmenti hisoblangan uyushmagan va uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi disproporsion farq yirik ekanligini ko'rish mumkin. Bu tafovut ikki bozorning o'zaro rivojlanishini o'zaro solishtirma tahlil etish orqali ular

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

<sup>10</sup> Xorij hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy fikrlarini tahlil qilish natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

faoliyatidagi mummolarni ko‘rish va ularning amaliy yechimlari yuzasidan takliflar berish imkoniyatini beradi.


## 2-jadval

### Aksiyalar bozorining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>11</sup>

|                                            | 2020   | 2021    | 2022    | 2023    | 2024     |
|--------------------------------------------|--------|---------|---------|---------|----------|
| Savdolar hajmi (mln. so‘m)                 | 510800 | 1147110 | 4705790 | 2620570 | 19182120 |
| O‘rtacha kunlik savdolar hajmi (mln. so‘m) | 2003   | 4588    | 19052   | 10567   | 77347    |
| Bitta bitimning o‘rtacha hajmi (mln. so‘m) | 14,2   | 16,1    | 58,4    | 6,4     | 43,2     |
| Bitimlar soni (dona)                       | 35983  | 71187   | 80652   | 411393  | 443849   |
| O‘rtacha kunlik bitimlar soni (dona)       | 141    | 285     | 327     | 1659    | 1790     |

Aksiyalar bozorining 2020-2024-yillarda asosiy ko‘rsatkichlarida besh yillik davr mobaynida O‘zbekiston aksiyalar bozorida sezilarli o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Aksiyalarni birlamchi joylashtirish (IPO) jarayonlari faollashuvi, FoP (Free of Payment) platformasi orqali yirik bitimlarning ko‘payishi, raqamli savdo maydonlarining, xususan, jet.uz ilovasining joriy qilinishi bilan bog‘liq. Xususan, 2022-yilda o‘rtacha bitim hajmi 58,4 mln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda u ko‘rsatkich 6,4 mln. so‘mga tushgan, 2024-yilda esa 43,2 mln. so‘mga oshgan.

Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag‘larining bir qismini yoki kreditning kamida 5 foizini mahalliy kapital bozorida korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish natijasida 2024-yil yakunlariga ko‘ra fond bozorining uyushgan savdo tizimi hisoblangan “Toshkent” RFB korporativ obligatsiyalar bozori segmentida savdo hajmi o‘sgan.



### 2-rasm. “Toshkent” Respublika fond birjasida obligatsiyalar bozorining rivojlanish dinamikasi tahlili<sup>12</sup>


Ushbu rasmda keltirilgan 2024-yilda fond bijada qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmi keskin oshib, 380,96 mlrd. so‘mni tashkil etgan, bu 2023-yilga nisbatan to‘rt barobardan ortiq ekanligini ko‘rish mumkin. Bitimlar soni ham 2020-yildagi 79 tadan 2024-yilda 3 118 taga yetib, sezilarli o‘shish kuzatilgan. Bu holat fond birjasida

<sup>11</sup> “Toshkent” Respublika fond birjasi rasmiy <https://uzse.uz/> sayti ma’lumotlaridan foydalanilgan.

<sup>12</sup> “Toshkent” Respublika fond birjasi rasmiy <https://uzse.uz/> sayti ma’lumotlaridan foydalanilgan.

likvidlik va investorlar faolligining ortganini anglatadi. Ayni paytda, 2024-yil bozor faoliyati uchun burilish nuqtasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqoti davomida biz xorijiy investorlarga (tan olingan chet el banklari, shu jumladan kastodian banklarga) davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borish imkoniyatini yaratish taklifini ilgari surganmiz. “Toshkent” Respublika fond birjasida 2023-yil davomida savdo hajmi 10,7 trillion so‘mni tashkil etdi va bu 2022-yilga nisbatan 22% ga o‘sganligini qayd etish mumkin. Ushbu o‘shish, bozorda birlamchi dilerlarning ko‘payishi va xalqaro investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish orqali amalga oshgan.




### 3-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondidagi xorijiy ulush tuzilmasi<sup>13</sup>

Ushbu rasm ma'lumotlari asosida 2024-yil yakuni holatiga 688 ta aksiyadorlik jamiyatining 333 tasida xorijiy ulush mavjud bo‘lib, bu jami AJlarning 48,4 foizini tashkil etishini ko‘rish mumkin. Xorijiy sarmoyadorlarga tegishli ulush hajmi 9,9 trln. so‘m bo‘lib, bu umumiy ulush hajmining 4,6 foiziga teng. Xorijiy ulushlarning eng katta qismi Vengriya (3 061,01 mlrd. so‘m), Buyuk Britaniya (1 879,49 mlrd. so‘m) va Qozog‘iston (1 371,05 mlrd. so‘m) davlatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa mazkur davlatlarning O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlariga sarmoya kiritishda yetakchi o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi.

Korporativ obligatsiyalar bozoridagi o‘zgaruvchanlik bir qator omillar bilan izohlanadi. Jumladan, savdo maydonchalarining segmentatsiyalashuvi ya’ni bozordagi professional va yirik investorlar, banklar, institutsional ishtirokchilar hamda chakana (yakka) investorlar o‘rtasida savdo faoliyatining ajralib borishi bu beqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayni paytda dividendlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tahlil qilish davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va davlat siyosatining natijadorligini baholashda muhim manba hisoblanadi.

<sup>13</sup> <https://uzcsd.uz/results>

Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarning aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng kamida 7 yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizini dividend shaklida to'lash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq<sup>14</sup>, deb hisoblaymiz. Bu yondashuv davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni kuchaytirish, investorlar ishonchini oshirish va kapital bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliy misol sifatida, 2023-yilda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to'langan dividendlar hajmi 26 017 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 16,9 % ga oshgani aniqlangan. Mazku holat dividend siyosatining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini ko'rsatadi.



#### 4-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to'langan dividendlar dinamikasi tahlili<sup>15</sup>


Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati natijasida davlat budjetiga tushadigan dividend to'lovlari iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy manbalarni shakllantiradi. 2020-2024-yillar davomida davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to'langan dividendlar hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan va bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan korporativ boshqaruv islohotlari hamda iqtisodiy barqarorlik oshayotganligidan dalolat bermoqda.

Uyushgan savdolarida qimmatli qog'ozlarni sotuvchi (sotib oluvchi) norezident yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraqlar ochishga ruxsat berish orqali mamlakatimizda 2024-yilda tijorat banklarida norezidentlar uchun milliy valyutada hisobvaraqlar ochish imkoniyatining kengayishi natijasida milliy valyutada amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 15% ga oshgan.

“Toshkent” Respublika fond birjasida 2023-yil yakunlari bo'yicha umumiy qiymati 2,71 trln. so'm bo'lgan 411 870 ta savdo bitimlari qayd etilgan. Ushbu bitimlarda jami 107 ta emitentning 28,08 mlrd. dona qimmatli qog'ozlari ishtirok etgan (4-rasm).


<sup>14</sup> <https://lex.uz/docs/6590025>

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining <https://www.davaktiv.uz/> rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanilgan.



**5-rasm. "Toshkent" Respublika fond birjasida tuzilgan bitimlar soni va hajmi (mlrd. so'm)<sup>16</sup>**

Yuqoridagi 5-rasm ma'lumotlari asosida shuni aytish mumkinki, 2023-yilda eng yirik savdo bitimlari fevral oyida qayd etilgan bo'lib, shu oyda umumiy bitimlar hajmi 945,91 mlrd. so'mga yetgan. Ayniqsa, 15-fevral kuni eng yuqori kunlik hajm 584,34 mlrd. so'mlik savdo amalga oshirilgan. Aksincha, eng kam hajmdagi bitim esa 16-mart kuni ro'y bergan bo'lib, atigi 70,80 mln. so'mni tashkil etgan. Bitimlar soni bo'yicha esa dekabr oyida eng yuqori faollik kuzatildi va shu kuni 87 230 dona bitim tuzilgan. Bu natijaga IPO (boshlang'ich ommaviy taklif) savdolari ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. 18-dekabr kuni eng ko'p 13 356 dona savdo bitimi qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich yil davomida kuzatilgan o'rtacha kunlik bitimlar sonidan 8,04 barobar ko'pdir.



**6-rasm. Qimmatli qog'ozlar savdosining asosiy ko'rsatkichlari<sup>17</sup>**

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha savdolar umumiy hajmi 2023-yil yakunlariga ko'ra 21,95 trln. so'mni (1,71 mlrd. AQSh dollari) tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 19,06 trln. so'mga ko'p bo'lib, 659,3 foizlik o'sishni ifodalaydi. Savdo hajmining asosiy qismini 19,56 trln. so'm (ya'ni 1,53 mlrd AQSh dollari) yoki jami tuzilgan bitimlarning 89,11 foizini fond birjasining kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bitimlar tashkil etgan.

<sup>16</sup>"Toshkent" RFB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>17</sup> "Toshkent" RFB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Savdolarning qolgan qismi esa, ya'ni 2,39 trln. so'm atrofidagi hajmi listingdan tashqari savdo maydonchasi orqali amalga oshirilgan bitimlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkichlar mamlakat qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, listingdan tashqari savdo maydonchasi bozorining mavjudligi savdo mexanizmlarining muqobil va moslashuvchan shakllari sifatida xizmat qilayotganini tasdiqlaydi. 2023-yilda qimmatli qog'ozlar bozorida kuzatilgan keskin o'sish, xususan, savdo hajmining 659,3% ga oshgani, mamlakatda kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Savdolar hajmining katta qismi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshirilgani esa, investorlarning rasmiy va shaffof savdo maydonlariga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini anglatadi.

So'nggi yillarda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi qonunchilikka bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lsa-da, amaldagi normativ-huquqiy baza hanuzgacha xalqaro amaliyot talablariga to'liq mos kelmaydi. Masalan, listing talablari, emitentlar tomonidan axborot oshkoraligini ta'minlash va investitsiya fondlarining faoliyatiga doir ayrim normalar bo'yicha aniq va barqaror me'yoriy tartibotlar yetarli darajada shakllanmagan.

Bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi kapital bozorining kengayishini cheklayotgan asosiy omillardan biridir. Jumladan, 2024-yil holatiga ko'ra, fond bozori ishtirokchilari (broker, diler, investitsiya vositachilari va boshqalar) soni atigi 30-40 atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarnikidan bir necha barobar past. Yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri bu qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiya hajmi hamda qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiyasining mamlakat YAIMga nisbati hisoblanadi.

### 3-jadval

#### Qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiyasi<sup>18</sup>

| Davlat nomi        | Kapitalizatsiya hajmi<br>(mlrd. AQSH dollarida) | YAIMga nisbati (%) |
|--------------------|-------------------------------------------------|--------------------|
| <b>Qozog'iston</b> | 63,85                                           | 21,8               |
| <b>O'zbekiston</b> | 18,74                                           | 16,7               |
| <b>Rossiya</b>     | 513                                             | 25                 |
| <b>Malayziya</b>   | 449                                             | 93                 |
| <b>Germaniya</b>   | 2 044                                           | 45                 |

O'zbekiston va bir qator rivojlangan mamlakatlarda 2024-yil holatiga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiyasi hajmi va uning mamlakat YAIMga nisbatan ulushi aks ettirilgan. Mazkur rasm ma'lumotlaridan ikki asosiy ko'rsatkich bo'yicha tahlilni amalga oshirish mumkin. Birinchisi qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiya hajmi (mlrd. AQSh dollarida) va ikkinchisi qimmatli qog'ozlar

<sup>18</sup> <https://kase.kz/en/information/news/show/1535629?>, <https://www.ft.com/content/436cb4c6-822e-4b27-b79a-3b5a838e87e1>, <https://www.intellinews.com/moscow-exchange-spbx-report-record-trading-volumes-in-2024-amid-market-volatility-364646/>, <https://tradingeconomics.com/malaysia/market-capitalization-of-listed-companies-us-dollar-wb-data.html>, <https://www.ceicdata.com/en/indicator/germany/market-capitalization--nominal-gdp> sahifalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bozori kapitalizatsiyasining YAIMga nisbati (%da).

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy kapitalizatsiya hajmi \$18,74 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu mamlakat YAIMning 16,7%ga teng. So'nggi yillarda bozor infratuzilmasining takomillashuvi, davlat ishtirokidagi korxonalarning aksiyalarini ochiq savdoga chiqarish, obligatsiyalar emissiyasining ko'payishi kabi islohotlar ushbu ko'rsatkichning o'sishiga turtki berdi. Biroq, kapitalizatsiya hajmi bo'yicha ham, uning mamlakat YAIMga nisbatan ulushi bo'yicha ham O'zbekiston bozori hali xalqaro miqyosda quyi o'rinlarni egallab turibdi.

Biz tahlil qilayotgan ma'lumotlar 2017-2024 yillarga tegishli bo'lib, tanlangan ma'lumotlar asosida dinamik qatorda (time series) ekonometrik tahlil amalga oshirilgan. Ushbu ekonometrik tahlilimizni Pesaran va Shinning avtoregressiv taqsimlangan lag ARDL model orqali erkli va erksiz o'zgaruvchilarning uzoq va qisqa muddatli bog'liqligini aniqlash uchun mazkur modelda tahlil qilishni amalga oshirdik. Ushbu modelni qulayligi shundan iboratki, tanlangan o'zgaruvchilar bir – biri bilan uzoq muddatli va qisqa muddatli bog'lanish mavjudligini va kelajakda qaysi o'zgaruvchilarning ta'siri yuqori ekanligini aniqlash imkonini beradi. Avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) model ekonometrik tahlilni amalga oshirish uchun birlik ildiz testini orqali o'zgaruvchilarning statsionar holati aniqlanadi. Avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelini asoschisi Pesaran, Shin va Smit nazariyasiga asosan tanlangan o'zgaruvchilar  $I(0)$  va  $I(1)$  nolchi ayirma va birinchi ayirma bilan birgalikda kointegratsiya mavjudligini tadqiqotlarida izohlab berganlar. Ushbu olimlarning tadqiqotidan kelib chiqqan holda ekonometrik tahlilni amalga oshirish uchun o'zgaruvchilarni birlik ildiz testini (unit root test) amalga oshiramiz.

#### 4-jadval

##### Birlik ildiz testi (unit root test)<sup>19</sup>

| O'zgaruvchilar  | Kengaytirilgan Dikki-Fuller testi (ADF) <sup>20</sup> |               | Fillips-Perron testi (PP) <sup>21</sup> |               |
|-----------------|-------------------------------------------------------|---------------|-----------------------------------------|---------------|
| Nolinchi ayirma |                                                       |               |                                         |               |
|                 | o'zgarmas (constant)                                  | trend (trend) | o'zgarmas (constant)                    | trend (trend) |
| <i>lnsmt</i>    | -5.102648***                                          | -5.893931***  | -5.059180***                            | -5.748644***  |
| <i>lnmi</i>     | -5.588404***                                          | -5.795947***  | -5.627872***                            | -5.869160***  |
| Birinchi ayirma |                                                       |               |                                         |               |
| <i>dlnmc</i>    | -9.440783***                                          | -9.413329***  | -19.80107***                            | -28.12305***  |
| <i>dqljsc</i>   | -10.74125***                                          | -10.70038***  | -32.60302***                            | -33.48394***  |

\*\*\* 1% da statistik muhimligini, \*\* 5% da statistik muhimligini, \* 10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan kengaytirilgan Dikki-Fuller va Fillips-Perron testlaridan ko'rinib turibdiki, o'zgaruvchilar  $\ln\text{capital}$   $I(1)$ ,  $\ln\text{mc}$  va  $I(1)$ ,  $\text{dqmd}$   $I(1)$  birlamchi

<sup>19</sup> "Toshkent" RFB ma'lumotlari asosida Yviews-12.0 programmasi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>20</sup> Dickey, D. A.; Fuller, W. A. (1979). "Distribution of the Yestimators for Autoregressive Time Series with a Unit Root". Journal of the American Statistical Association. 74 (366): 427–431.

<sup>21</sup> Phillips, P.; Perron, P. (1988). "Testing for a Unit Root in Time Series Regression". Biometrika. 75 (2): 335–346.

ayirmada, xususan, birinchi tartibdagi statsionar,  $dlnsmt$   $I(0)$  va  $dmi$   $I(0)$  nolinni tartibda statsionar hisoblanadi. Kengaytirilgan Dikki-Fuller va Fillips-Perron testlarini natijasining ishonchlilik darajasi 95 foiz ishonchli hisoblanadi. Chunki, tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, barcha o'zgaruvchilarning statistik muhimligi 5% da ahamiyatli bo'lib, ishonchlilik darajasi shuning uchun 95% ishonchli hisoblanadi. ARDL modelning xususiyatiga ko'ra, o'zgaruvchilar nolinni va birinchi tartibda statsionar bo'lish lozim.

ARDL modelining uzoq muddatli koeffitsientlari va xato-tuzatish modeli (ECM)ni baholash amalga oshiramiz va kointegratsiya mavjudligi isbotlangandan so'ng uzoq muddatli bog'lanishni ARDL modeli yordamida aniqlaymiz:

$$dlnlnmc_t = \varphi_0 + \beta_1 dlnqljsc_{t-1} + \beta_2 lnmi_{t-1} + \beta_3 lnsmt_{t-1} + \varepsilon_t \quad ()$$

Yuqoridagi formulaga asosan, ekonometrik tahlilimizda qimmatli qog'ozlar bozori kapitallashuvi hajmiga ta'sir qiluvchi omillar darajasini ARDL usulidan foydalanib, uzoq muddatli bog'liqlik testi o'tkazildi. Ushbu test natijalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

## 5-jadval

### Avtoregressiv taqsimlangan lag ARDL modelida baholash<sup>22</sup>

| O'zgaruvchilar               | ARDL(3, 0, 0, 1) |                  |              |            |
|------------------------------|------------------|------------------|--------------|------------|
|                              | Koeffitsient     | Standart xatolik | t-statistika | Ehtimollik |
| $dlnmc$ (-1)                 | -0.225289        | 0.113526         | -1.984479    | 0.0511     |
| $dlnmc$ (-2)                 | -0.291836        | 0.103242         | -2.826709    | 0.0061     |
| $dlnmc$ (-3)                 | -0.155355        | 0.106455         | -1.459351    | 0.1489     |
| $lnmi$                       | 0.013271         | 0.072079         | 0.184122     | 0.8544     |
| $lnsmt$                      | -0.004919        | 0.020464         | -0.240357    | 0.8107     |
| $dqljsc$                     | -0.628172        | 0.180379         | -3.482508    | 0.0009***  |
| $dqljsc$ (-1)                | -0.506515        | 0.189657         | -2.670695    | 0.0094     |
| C                            | 0.009141         | 0.471517         | 0.019387     | 0.9846     |
| Modelni mezonlari            |                  |                  |              |            |
| Qoldiqlar kvadrati           |                  | 0.307885         |              |            |
| O'zgargan qoldiqlar kvadrati |                  | 0.239648         |              |            |
| F-statistika                 |                  | 4.512008         |              |            |
| Ehtimollik (F-statistika)    |                  | 0.000332**       |              |            |

\*\*\* 1% da statistik muhimligini, \*\*5% da statistik muhimligini, \*10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.

ARDL koeffitsientlaridan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar bozori kapitallashuvi hajmiga qimmatli qog'ozlar bozorining bozor indeksi ta'siri mavjud emasligi, qimmatli qog'ozlar bozorida listingga kirgan aksiyadorlik jamiyatlari soni ta'siri mavjud ekanligi va qimmatli qog'ozlar bozor aylanmasi hajmining ta'siri emasligini ko'rishimiz mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori kapitallashuviga qimmatli qog'ozlar bozorida listingga kirgan aksiyadorlik jamiyatlari soni salbiy ta'sir qiladi.

Dissertatsiyaning «Xorijiy mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari» nomli uchinchi bobida rivojlangan mamlakatlar

<sup>22</sup> "Toshkent" Respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida Eviews-12.0 programmasi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining asosiy xususiyatlari, zamonaviy global iqtisodiy tizimda qimmatli qog'ozlar bozori nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish vositasi, balki makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida qaraladi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar tajribasi qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional va funksional rivoji, regulyator tizimi, ishtirokchilar faolligi va texnologik transformatsiyasi nuqtai nazaridan boshqa mamlakatlar, jumladan, mamlakatimiz uchun ham namuna bo'la oladi.

Rivojlangan mamlakatlar (masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya va boshqalar) qimmatli qog'ozlar bozorlari o'zining asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kuchli huquqiy va institutsional baza borasida qimmatli qog'ozlar bozorining samarali ishlashi uchun eng muhim omillardan biri - bu aniq belgilangan, mustahkam va barqaror huquqiy-me'yoriy asosdir. Rivojlangan davlatlarda fond bozori faoliyati maxsus regulyator organlar tomonidan qat'iy nazorat qilinadi. Masalan: AQShda bu vazifani SEC (Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi) bajaradi. Yevropa Ittifoqida ESMA (Yevropa qimmatli qog'ozlar va bozorlar idorasi) faoliyat yuritadi. Yaponiya va Koreyada esa FSA (moliyaviy xizmatlar agentliklari) bevosita regulyatsiya va monitoring bilan shug'ullanadi. Ushbu tizimlar orqali investorlar huquqlari himoya qilinadi, bozorning shaffofligi va adolatligi ta'minlanadi, bozorda ishonch muhitining yuqori darajasi shakllantiriladi.

AQSh fond bozori kapitalizatsiyasi hajmida eng yuqori o'sish 2015-yilda kuzatilgan 25,3 trln. AQSh dollar tashkil etgan. Bu jarayon davom etib, 2024-yilda 52 trln. AQSh dollar hajmga yetdi. Bu o'sish asosan yuqori texnologiyali kompaniyalar (FAANG — Facebook (Meta), Apple, Amazon, Netflix, Google (Alphabet)) aksiyalarining bozor qiymatidagi keskin o'sish, investitsiya oqimlarining barqarorligi va AQSh dollarining global rezerv valyuta sifatidagi mavqeiga asoslangan.

Xitoy kapital bozori ham jadal rivojlanib, global fond bozorlarida AQShdan keyin ikkinchi yirik kapitalizatsiya hajmiga ega bo'ldi. Xitoy hukumati tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy islohotlar, ichki talabning kengayishi va tashqi investorlar uchun bozorning bosqichma-bosqich ochilishi ushbu o'sishga asosiy turtki bo'ldi.

2015-2024 yillar oralig'ida dunyoning yirik va yetakchi kapital bozorlariga ega bo'lgan mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bozori kapitalizatsiyasi hajmiga oid o'zgarishlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil doirasiga moliya tizimida muhim o'rin tutuvchi AQSh, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya hamda Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarni qayd etish mumkin. Har bir mamlakat bo'yicha bozor kapitalizatsiyasining yillik dinamikasi, o'sish sur'atlari, iqtisodiy omillar ta'siri va investitsion muhitdagi tendensiyalar o'rganilib, mazkur davr mobaynida kapital bozorlarining rivojlanish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Quyidagi jadvalda 2015-2024 yillar oralig'ida tanlangan mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi kapitalizatsiya hajmining aniq raqamlari keltirilgan bo'lib, ushbu raqamlar milliy va xalqaro moliyaviy manbalar asosida shakllantirilgan.

**2015–2024 yillarda mamlakatlar bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiyasi<sup>23</sup> (trln. AQSh dollarida)**

| Yil  | AQSh | Xitoy | Germaniya | Fransiya | Janubiy Koreya | Singapur | Malayziya | Buyuk Britaniya |
|------|------|-------|-----------|----------|----------------|----------|-----------|-----------------|
| 2015 | 25.0 | 7.0   | 1,5       | 2.0      | 1,2            | 0.6      | 0.5       | 3,5             |
| 2016 | 26,5 | 7,5   | 1,6       | 2,1      | 1,3            | 0.6      | 0.5       | 3,6             |
| 2017 | 30.0 | 8.0   | 1,8       | 2,3      | 1,5            | 0.7      | 0.6       | 3,8             |
| 2018 | 28.0 | 8,5   | 1,7       | 2,2      | 1,4            | 0.7      | 0.6       | 3,7             |
| 2019 | 31.0 | 9     | 1,9       | 2,4      | 1,6            | 0.8      | 0.7       | 3,9             |
| 2020 | 35.0 | 10.0  | 2.0       | 2,5      | 1,8            | 0.9      | 0.8       | 4.0             |
| 2021 | 40.0 | 12.0  | 2,2       | 2,8      | 2.0            | 1.0      | 0.9       | 4,2             |
| 2022 | 38.0 | 11,5  | 2,1       | 2,7      | 1,9            | 0.9      | 0.8       | 4,1             |
| 2023 | 42.0 | 12,5  | 2,3       | 2,9      | 2,1            | 1.0      | 0.9       | 4,3             |
| 2024 | 52.0 | 11,9  | 2,2       | 2,2      | 1,7            | 0.6      | 0.4       | 4.0             |

Qimmatli qog'ozlar bozori xorijiy davlatlarda mamlakat iqtisodiyotining asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda esa mazkur soha iqtisodiyot rivojlanishida muhim o'lchov vositasi (barometri) hamdir. Shu sababdan ham ushbu bozorni doimiy ravishda rivojlantirib borish, ushbu bozor faoliyatini tartibga solishda eng ilg'or usullardan foydalanishga harakat qilish muhim hisoblanadi.

Hozirda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishdagi xorij tajribalari quyidagi yo'nalishlarda talqin etilmoqda:

1-yo'nalish: Qimmatli qog'ozlar bozorini xorijiy davlatlar tomonidan tartibga solish amaliyoti va uni rivojlantirish;

2-yo'nalish: Qimmatli qog'ozlar bozori institutlari faoliyatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan choralar;

3-yo'nalish: Qimmatli qog'ozlar bozorini xorijiy davlatlarda rivojlantirish strategiyalari (istiqbolli yo'nalishlar)ni ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorlarini tartibga solish va uni rivojlantirish borasida xorijiy davlatlar tomonidan umumqabul qilinadigan me'yorlar va standartlarni joriy etishda bir qator xalqaro tashkilotlar asosiy o'rinni egallab bormoqda.


Quyida keltirilgan xalqaro tashkilotlar moliya bozorlarini tartibga solishda, jumladan, xalqaro darajadagi standart va me'yorlarni joriy etish, qimmatli qog'ozlar bozorlarini tartibga solish hamda ularni institutsional va infratuzilmaviy jihatdan rivojlantirish bilan izchil shug'ullanib kelmoqda. Bu tashkilotlar global moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar huquqlarini himoya qilish va moliya bozorlarining ochiqligi hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi.

<sup>23</sup> <https://data.worldbank.org/>, <https://www.imf.org/en/Home> internet sahifalari orqali muallif tomonidan shakllantirilgan.



**7-rasm. Jahonda moliya bozori standartlarini joriy etuvchi asosiy xalqaro tashkilotlar<sup>24</sup>**

Xalqaro tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilayotgan moliya bozoriga oid normativ hujjatlar, metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar milliy regulyatorlar tomonidan qonunchilikka integratsiyalashgan holda joriy qilinmoqda. Ushbu yondashuv orqali moliyaviy regulyatsiya tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda hamda investorlar uchun ishonchli va prognoz qilinadigan huquqiy muhit yaratilmoqda. Shu bilan birga, bu hujjatlar milliy moliya bozorlari barqarorligini oshirishga va ularning global moliyaviy tizimga integratsiyasini tezlashtirishga xizmat qilmoqda.



**8-rasm. Jahonda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish modellari<sup>25</sup>**

<sup>24</sup> Marc Labonte. Who regulates whom? An overview of the U.S. financial regulatory Framework. Congressional Research Service. March 10, 2020. – P. 26.

<sup>25</sup> Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida tuzilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qimmatli qog'ozlar bozorini samarali tartibga solish va muvofiqlashtirishda davlat organlari bilan bir qatorda professional ishtirokchilar, xususan o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar o'rtasida vakolatlar va mas'uliyatlarni maqsadli tarzda taqsimlash muhim amaliy va nazariy asosga ega. Bunday ikki bosqichli yondashuv nafaqat tartibga solish samaradorligini oshiradi, balki bozorning ichki mexanizmlarini moslashuvchan tarzda boshqarish, professionallik va tashabbusni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Fond indeksleri nafaqat statistik ko'rsatkich, balki bozorning "haroratini o'lchovchi" vosita, moliyaviy aktivlarga bo'lgan talab va taklif muvozanatini aks ettiruvchi mexanizm, iqtisodiy barqarorlik va ishonchning integral ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning samarali tahlili va dinamikasi asosida milliy fond bozorlarini baholash, ularni global moliyaviy tizimga integratsiyalash bo'yicha tegishli strategik xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

## 7-jadval

### Jahondagi yetakchi qimmatli qog'ozlar indekslarining yillik rentabellik dinamikasi<sup>26</sup> (foizda)

| Yillar | S&P 500 (Total Return) | FTSE 100 (Price Return) |
|--------|------------------------|-------------------------|
| 2015   | +1.38                  | -4.45                   |
| 2016   | +11.96                 | +13.85                  |
| 2017   | +21.83                 | +7.63                   |
| 2018   | -4.38                  | -12.48                  |
| 2019   | +31.49                 | +12.10                  |
| 2020   | +18.40                 | -14.34                  |
| 2021   | +28.71                 | +14.30                  |
| 2022   | -18.11                 | +0.91                   |
| 2023   | +26.29                 | +3.78                   |
| 2024   | +25.02                 | +5.69                   |

Yuqoridagi 7-jadval asosida shuni aytishimiz mumkinki, yirik xorijiy fond indekslarining 2015-2024 yillardagi yillik o'sish sur'atlari nafaqat bozor rentabelligi va investorlar faolligini, balki makroiqtisodiy siyosat, moliyaviy barqarorlik va global geoiqtisodiy jarayonlarni aks etishiradi. Mazkur davr ichida indekslarning dinamikasi asosan AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa va Osiyo fond bozorlariga tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. S&P 500 indeksi (AQSh) global kapital bozorining eng yirik va eng ta'sirchan barometri hisoblanadi. 2021-yilda texnologik sektordagi o'sish evaziga S&P 500 +28,7% ga ko'tarildi, ammo 2022-yilda inflyatsiyaning kuchayishi, foiz stavkalarining oshirilishi va geosiyosiy tanglik sababli indeks 18,1% ga tushdi. 2023-2024 yillarda iqtisodiy tiklanish jarayonlari va sarmoyaviy faollik kuchayishi fonida barqaror o'sish qayd etildi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yo'nalishlari» deb nomlangan. Mazkur bobda qimmatli

<sup>26</sup> <https://www.slickcharts.com/sp500/returns> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

qogʻozlar bozori kapitalning markazlashmagan shaklda, raqobat muhitida erkin taqsimlanishiga xizmat qilib, iqtisodiy tizimda resurslarning samarali harakatini tashkil etishi qayd etilgan. Bundan tashqari, u turli darajadagi investorlar ishtirokida moliyaviy vositalar aylanishini taʼminlab, fond bozori mexanizmlarini mustahkamlaydi va mamlakat ichki kapital bazasini kengaytiradi. Shu bilan birga, mazkur bozor milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya tizimlariga integratsiyalashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi. Chet el investitsiyalarining jalb etilishi va joylashtirilishini yengillashtiradi, shaffoflik, hisobdorlik va korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Shanxay fond birjasida 2023-yilda qayd etilgan moliyaviy koʻrsatkichlar Xitoy milliy valyutasi hisoblangan yuan birligida koʻrib chiqiladi. Tahlil davomida aksiyalar, obligatsiyalar, fondlar va boshqa moliyaviy instrumentlar boʻyicha savdo aylanmasi hamda ularning umumiy moliyaviy tizimdagi ulushi baholanadi. Bu esa Xitoy moliya bozorining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalarini chuqur anglash imkonini beradi.

## 8-jadval

### Shanxay fond birjasida qayd etilgan moliyaviy koʻrsatkichlar (yuan hisobida)<sup>27</sup>

| Bozor segmenti                  | Aylanma hajmi (mlrd. yuan) | Umumiy ulushi (%) |
|---------------------------------|----------------------------|-------------------|
| Aksiyalar bozori                | 89 362,8                   | 78,41%            |
| Obligatsiyalar bozori           | 10 000,0                   | 8,77%             |
| Fondlar (ETF, LOF va boshqalar) | 12 000,0                   | 10,53%            |
| Boshqa qimmatli qogʻozlar       | 2 000,0                    | 2,29%             |
| <b>Jami:</b>                    | <b>113 362,8</b>           | <b>100%</b>       |

Shanxay fond birjasining 2023-yilgi koʻrsatkichlari nafaqat Xitoyda, balki butun Osiyo mintaqasida eng faol va barqaror ishlayotgan fond bozorlaridan biri sifatida oʻz mavqeini saqlab qolganini koʻrsatmoqda. “Yil davomida umumiy savdo aylanmasi 113,3 trln. yuandan oshgan, bu esa birjada investorlar faolligi yuqori boʻlganini anglatadi. Aksiyalar bozori – 89,36 trln. yuan hajmdagi aylanma bilan aksiyalar bozori umumiy savdo hajmining 78,4% ini tashkil etgan. Bu koʻrsatkich investorlarning fond bozorida asosan aksiyalar bilan ishlayotganini va bu segmentning yuqori likvidligini koʻrsatadi”<sup>28</sup>.

Fond bozori kapitalizatsiyasi, investorlar sonining ortishi, qimmatli qogʻozlar savdo hajmining oʻsishi, birlamchi va ikkilamchi bozorlar faoliyatining jadallashuvi bularning barchasi milliy iqtisodiyotda moliyaviy chuqurlikni oshiradi va YAIMda moliyaviy sektorning ulushini koʻpaytiradi. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot”, ESG

<sup>27</sup> <https://www.globaltimes.cn/page/202409/1320598.shtml>

<sup>28</sup> Shanxay fond birjasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

(Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) tamoyillariga mos investitsiya vositalarining joriy etilishi, nafaqat barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo'shadi, balki global investorlar ishonchini ham oshiradi. Ushbu jarayonda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar iqtisodiy siyosatning rejalashtirish, monitoring va baholash bosqichlarida asosiy mezon sifatida qaraladi.

## 9-jadval

### Maqsadli ko'rsatkichlar va ularning makroiqtisodiy ahamiyati<sup>29</sup>

| Ko'rsatkich                                   | 2024-yil        | 2030-yil maqsadi                               |
|-----------------------------------------------|-----------------|------------------------------------------------|
| <b>Bozor kapitalizatsiyasi / YAIM</b>         | 5,80%           | 15–20%                                         |
| <b>Aksiyadorlik jamiyatlari soni</b>          | 650             | 1000+                                          |
| <b>Investorlar soni</b>                       | 170 ming        | 500 ming (shu jumladan 50 ming institutsional) |
| <b>Fond savdolarining yillik hajmi</b>        | 19,2 trln. so'm | 60-70 trln. so'm                               |
| <b>Emitentlar soni (obligatsiya bozorida)</b> | 50+             | 150-200                                        |

